

## **AMALIYOTCHI-TALABALARNING MALAKAVIY PEDAGOGIK AMALIYOTIGA QO'YILADIGAN TALABLAR**

*BuxDU Elektronika va texnologiya kafedrasida dotsenti*

*D.A. Sayfullayeva*

*Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti*

*Mirzakulova Nodira Ibragimovna*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada amaliyotchi-talabalarning malakaviy pedagogik amaliyotiga qo'yiladigan talablar, amalga oshirish vazifalari, amaliyotni o'tash bo'yicha huquq va majburiyatlari, amaliyot jarayonida tayyorlanadigan hujjatlar hamda amaliyotni yakunlashga qo'yiladigan talablar haqida fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** amaliyot, malakaviy, huquq, majburiyatlar, talablar, kasbiy ko'nikma, malaka, shakllantirish, talablar, bilish, faoliyat.

Dunyoda oliy o'quv yurtlari talabalarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda malakaviy pedagogik amaliyot muhim o'rin egallaydi. Malakaviy pedagogik amaliyot ta'lim turlari uchun yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlash ishining ajralmas qismi bo'lib, talabalarning kasbiy ko'nikma va malakalarini rivojlantiruvchi pedagogik jarayondir. Pedagogik amaliyot mazmuni va uni tashkil etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuning talablari hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim, Xalq ta'lim va Maktabgacha ta'lim vazirliklarining 2019 yil "5" martdagi 10-q/q-13-4-son qarori ilovasi asosida Pedagogika ta'lim sohasi talabalarining malakaviy pedagogik amaliyotini tashkil etish tartibi to'g'risida Muvaqqat nizomiga muvofiq Buxoro davlat pedagogika institutida talabalarning malakaviy pedagogik amaliyotini o'tash bo'yicha Nizom ishlab chiqilgan. Mazkur Nizomda malakaviy pedagogik amaliyotning mazmuni,

malakaviy pedagogik amaliyotni tashkil etish, malakaviy pedagogik amaliyotga rahbarlik qilish, amaliyotchi-talabaning malakaviy pedagogik amaliyotni o'tash bo'yicha huquq va majburiyatlari, malakaviy pedagogik amaliyotni o'tash bosqichlari, malakaviy pedagogik amaliyotni yakunlash, moddiy ta'minot hamda yakuniy qoida haqida fikrlar bayon etilgan. Malakaviy amaliyot bo'lajak pedagogik kadrlarni tayyorlash tizimining ajralmas qismi bo'lib, u bo'lg'usi pedagogda kasbiy mahoratni shakllantirish va uni yanada rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Ma'lumki, bo'lg'usi pedagog o'zi tanlagan kasbiy yo'nalish bo'yicha yetarli nazariy-amaliy bilimga ega bo'lmasa-yu, uni kasbiy faoliyati davrida o'quvchi-talabalarga yetkaza olmasa, ya'ni qanday o'qitish kerakligini bilmasa, u holda bizning kelajagimiz bo'lgan bugungi yoshlar ertaga zamon talabi darajasidagi mutaxassislar bo'lib yetisha olmaydilar. Shuning uchun xam bugungi kunda talabalar malakaviy pedagogik amaliyot jarayonida amalga oshiriladigan vazifalarini bilishlari shart hisoblanadi.

Malakaviy pedagogik amaliyot jarayonida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

talabalarining nazariy bilimlarini chuqurlashtirish va mustahkamlash;

- mustaqil pedagogik bilim orttirish va doimiy o'zini-o'zi tarbiyalash ehtiyojini rivojlantirish;

- "texnologiya" fani o'qituvchisi kasbiga qiziqishni tarbiyalash va mustahkamlash;

- bo'lg'usi o'qituvchi shaxsining muhim kasbiy sifatlarini tarbiyalash;

- kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirish;

- pedagogik faoliyatga ijodiy va tadqiqiy yondashishni shakllantirish.

Malakaviy pedagogik amaliyot ta'lim-tarbiya jarayonini zamon talablari asosida tashkil etadigan, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini muvaffaqiyatli qo'llayotgan, bu borada etarli ish tajribalariga ega bo'lgan, o'quv-moddiy ta'minoti bugungi kun talablariga javob beradigan uzluksiz ta'limning

umumiy o'rta ta'lim muassasalari bilan tuzilgan shartnoma asosida tuziladi. Malakaviy pedagogik amaliyotni o'tkaziladigan ta'lim muassasalari oliy o'quv yurti joylashgan hududga iloji boricha yaqin joylashgan ta'lim muassasalarida amaliyotchi-talabalar malakaviy pedagogik amaliyotni o'tash bo'yicha huquq va majburiyatlarini bajaradilar.

Umumta'lim maktablarida malakaviy amaliyotni o'tish davrida talabaning majburiyatlari:

- maktabning ichki tartib-qoidalariga, maktab direktori, maktab direktorining o'rinbosari, amaliyot rahbarlari tomonidan belgilanga tartibga amal qilish;
- talaba o'zining bajaradigan ishi va uning natijalari uchun maktab xodimlari singari bir xil javobgar;
- mehnat intizomiga rioya qilish;
- malakaviy amaliyot rejasida nazarda tutilgan vazifalarni to'liq bajarish;
- texnologiya darslari bir hafta kuzatib, o'rganib, ikkinchi hafta fan o'qituvchi nazoratida darsning tayyorlov yoki yakunlovchi qismlarni o'tkazishda qatnashish;
- ochiq darslar va to'garak mashg'ulotlarda qatnashish;
- talaba har kuni barcha turdagi faoliyatga (darslarni kuzatish, darslarda qatnashish, tarbiyaviy va madaniy-ma'rifiy tadbirlarini o'tkazish, hujjatlarni o'rganish va boshqalar) kuniga kamida 6 soat sarflashga majbur.

Talabaning huquqlari:

- talaba maktab sharoiti va imkoniyatidan kelib chiqib, mazkur rejaga mos holda, malakaviy amaliyot davri uchun individual ish rejasini mustaqil tuzishi;
- o'quv-tarbiyaviy va ijodiy tadbirlarni tashkil qilib o'tkazishda ijodiy yondoshuv va tashabbuskorlikni namoyon qilishi;
- uslubshunos rahbardan, maktab mutaxassislaridan maslahatlar olishi;
- "texnologiya" fani bo'yicha tarbiyaviy va sinfdan tashqari ishlar shakllari, turlari va mavzularini mustaqil tanlashi;

- talabning ishi qoniqarsiz deb topilganda o'quv mashg'ulotlaridan ajralmagan holda malakaviy amaliyotni qaytadan o'tish uchun dekanga murojaat qilishi.

Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalari malakaviy pedagogik amaliyotni o'tash bo'yicha huquq va majburiyatlarini bajarish jarayonida kasbiy faoliyat bilan tanishishga, kasbiy ko'nikma va malakalarni, malakaviy ish tajribasini egallaydi.

Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalari Pedagogik amaliyot jarayonida tayyorlanadigan hujjatlar to'plamlari, tadbirlar va ko'rgamali qurollar tayyorlashning mazmuni bilan tanishadilar.

Amaliyotni yakunlashga qo'yiladigan talablar:

1. Texnologiya fani o'quv ustaxonasi va o'quv jihozlariga qo'yilgan talablar.
2. O'qitishni korgazmali qurollari.
3. O'quv jihozlarining tavsifi.
4. Jonli tabiat burchagini tashkil etish.

Umumta'lim maktablarida texnologiya xonasi ta'lim samaradorligini oshirish uchun xizmat qiladigan ilmiy asosda tashkil etilgan o'quvchi va oqituvchining mehnati maxsus jihozlangan xonadan iborat bo'lishi kerak. Xonada nafaqat dars tashkil qilish, balki sinfdan tashqari xilma xil ishlarni amalga oshirish ko'zda tutiladi. O'quvchilarning texnologiya fanidan bilimlarini chuqurlashtirish va kengaytirish uchun imkon yaratish talab etiladi. Xonadagi texnik vositalardan keng foydalanish oqitishga ijodiy yondashish, oquvchilarni faol fikirlashga olib keladi.

1. Tabiiy o'quv ko'rgazmali materiallar.
2. Tasviriy o'quv ko'rgazmali materiallar tayyorlash mumkin.

O'quv ustaxonani tashkil etishda fan o'qituvchisining roli nihoyatda katta. U mavzular bo'yicha jihozlar, o'quv vositalari majmuyini umumlashtiradi, uni toldirib berishni taminlaydi. Texnologiya o'quv ustaxonasi quyidagi masalalarni yechish uchun yordam qilishi kerak.

1. O'qishning samaradorligini oshirishga qaratilgan maxsus jihozlar bilan o'qish jarayonini taminlash.

2. Ma'lumotlarni barcha turlarida texnik vositalardan keng foydalanish.

3. Texnologiya fanida amaliy ishlar va boshqalar uchun tegishli o'quv materiallar bilan taminlash.

4. Darslar va sinfdan tashqari ishlar uchun zarur jihozlar bilan taminlash.

Texnologiya o'quv ustaxonasi nafaqat yaxshi jihozlanib qolmay, balki ishlash uchun qulay va estetik jihatdan talabga javob berilgan bo'lishi kerak. Xonani jihozlashda o'quv mashg'ulotlari uchun mos materiallarni tanlashga diqqat etiborni qaratish kerak. Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalari malakaviy pedagogik amaliyotni umumta'lim maktablariga borib, o'tash jarayonida amaliyotiga qo'yiladigan talablarni bilishlari va kasbiy faoliyat bilan tanishishlari, kasbiy ko'nikma va malakalarni egallashlari muhimdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Pedagogik amaliyotni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha uslubiy qo'llanma. - T.: 2000y. Dilafuz Ahmadovna Sayfullayeva, Madina Buronovna Akobirova. [A communicative approach to teaching students in english of their specialties](#). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2022. B.404-408

2. Sayfullayeva D.A Innovative and Individual Approach in Professional and Vocational Training of Young People with Disabilities. Eastern European Scientific Journal. Ausgabe 6- 2017 Part I.- P.154-157

3. Dilafuz Ahmadovna Sayfullayeva. "Methodology of using innovative technologies in technical institutions". PSYCHOLOGY AND EDUCATION. Scopus International Journal. (2021) 58(1)

4. Sayfullaeva D.A Puti povыsheniya effektivnosti prepodavaniya spetsialnykh dissiplin. International conference on science and education. Turkey. -2021. B.72-74 **Murod Barakaev. Malakaviy amaliyot: uslubiy qo'llanma.** «TURON-IQBOL» TOSHKENT – 2015.

5. Aliev I.T. Pedagogik amaliyotlarni tashkil etish. –T.: «Fan va

texnologiya», 2014, 56 bet. <https://kitobxon.com/oz/asar/70>.

6. Lolakhon T. Fairy-tale genre in languages of different systems are onomastic units //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2022. – Т. 11. – №. 2. – С. 90-94.

7. Юлдашева, Д., and Л. Тешабаева. "БАДИЙ АДАБИЁТДА ЭРТАК ЖАНРИГА ХОС ОНОМАСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ ПРЕЦЕДЕНТ НОМ ВАЗИФАСИДА ҚЎЛЛАНИЛИШИ." *Gospodarka i Innowacje*. 29 (2022): 234-242.

8. Teshebaeva L. COMMUNICATIVE APPROACH TO FOREIGN LANGUAGE TEACHING IN THE HIGHER EDUCATION //American Journal of Pedagogical and Educational Research. – 2022. – Т. 6. – С. 108-112.

9. Lolaxon T., Maftuna M. MODERN METHODS OF TEACHING ENGLISH //EDITORIAL BOARD. – С. 613.

10. Lola Teshebaeva, teacher. (2022). THE IMPORTANCE OF MULTIMEDIA TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 3(11), 87-89.

11. Teshebaeva L. R. HISTORY OF THE CONCEPT OF THE TERM "FAIRY TALE", THEORETICAL AND METHODOLOGICAL ANALYSIS //International Scientific and Current Research Conferences. – 2022. – С. 76-77.